



INTERNATIONAL LEGAL STANDARDS FOR THE PROTECTION OF THE DEFENDANT'S RIGHT TO A FAIR TRIAL

Solijonov Bekmurod Abduaziz ugli

Master's student of the faculty of
"International Human Rights Law"
at the Law Enforcement Academy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19844036>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 26th April 2026

Online: 27th April 2026

KEYWORDS

Human rights, fair trial, presumption of innocence, right to defense, habeas corpus, international legal standards, rights of the accused, criminal procedure, Rome Statute, international judicial practice.

ABSTRACT

This article analyzes international legal standards for ensuring the right of the accused to a fair trial. It examines key procedural guarantees established in the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights, the European Convention on Human Rights, and the Rome Statute. Particular attention is paid to the presumption of innocence, the right to defense, the right to a fair trial, and the principle of habeas corpus. The article also explores the practice of international judicial bodies in applying these standards. It substantiates the importance of protecting the rights of the accused within both national and international legal systems.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ СТАНДАРТЫ ЗАЩИТЫ ПРАВА ОБВИНЯЕМОГО НА СПРАВЕДЛИВОЕ СУДЕБНОЕ РАЗБИРАТЕЛЬСТВО

Солижонов Бекмурод Абдуазиз угли

Магистрант факультета «Международное право прав человека»

Академии правоохранительных органов

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19844036>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 26th April 2026

Online: 27th April 2026

KEYWORDS

Права человека, справедливое судебное разбирательство, презумпция невиновности, право на защиту, habeas corpus, международно-правовые стандарты, права обвиняемого, уголовный процесс, Римский статут, международная судебная практика.

ABSTRACT

В данной статье анализируются международно-правовые стандарты обеспечения права обвиняемого на справедливое судебное разбирательство. Рассматриваются ключевые процессуальные гарантии, закреплённые во Всеобщей декларации прав человека, Международном пакте о гражданских и политических правах, Европейской конвенции по правам человека и Римском статуте. Особое внимание уделено принципу презумпции невиновности, праву на защиту, праву на справедливое судебное разбирательство, а также принципу habeas corpus. Кроме того, проанализирована практика международных судебных органов в контексте реализации данных стандартов. Обосновывается значение защиты прав обвиняемого в национальной и международной правовых системах.



SUDLANUVCHINING ADOLATLI SUD MUHOKAMASIGA BO'LGAN HUQUQINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY STANDARTLARI

Solijonov Bekmurod Abduaziz o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasining
"Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" fakulteti
magistratura tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19844036>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 26th April 2026

Online: 27th April 2026

KEYWORDS

Inson huquqlari, odil sudlov, aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, habeas corpus, xalqaro huquqiy standartlar, sudlanuvchi huquqlari, jinoyat protsessi, Rim statuti, xalqaro sud amaliyoti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada sudlanuvchining odil sudlovga bo'lgan huquqi va uni ta'minlashning xalqaro-huquqiy standartlari tahlil qilinadi. Xususan, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi hamda Rim statuti doirasida belgilangan asosiy protsessual kafolatlar yoritilgan. Aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, adolatli sud muhokamasi, habeas corpus prinsipi kabi muhim institutlarning mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro sud amaliyoti misolida mazkur tamoyillarning qo'llanishi tahlil qilingan. Maqolada sudlanuvchi huquqlarini ta'minlashning milliy va xalqaro huquq tizimidagi o'rni va ahamiyati asoslab beriladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash jamiyatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Sababi, inson huquqlariga rioya qilish – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir [1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida O'zbekiston xalqi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatini namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak

mas'uliyatni anglagan holda... mazkur Konstitutsiyani qabul qilinganligi belgilangan. Jadal rivojlanayotgan, ochiq hamda demokratik davlat sifatida mamlakatimiz inson huquqlarini ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda. Shu sababli davlat inson huquqlariga oid 80 dan ortiq muhim xalqaro hujjatlarga qo'shilgan [2].

Asrlar davomida jinoyat sodir etgan shaxslarning huquqlari kafolatlariga oid qoida va standartlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda boshqa ko'plab xalqaro universal hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Hozirgi kunda sud-huquq tizimiga taalluqli inson huquq va erkinliklari bo'yicha xalqaro standartlar sifatida shaxsiy daxlsizlik, sha'n va qadr-qimmatni hurmat qilish, himoyalani



huquqi, qonun himoyasida bo'lish, aybsizlik prezumpsiyasi, shaxsiy hayot va oila daxlsizligi, uy-joy daxlsizligi, erkin harakatlanish, mulk daxlsizligi, mehnat qilish, dam olish, til hamda boshqa ko'plab huquq va erkinliklarni o'z ichiga olgan qoidalar e'tirof etilgan. Shu bilan birga, davlatlarga ushbu huquqlarni amalda tan olish, ta'minlash va himoya qilish majburiyati zamonaviy xalqaro huquq normalari orqali yuklatiladi. Shuni unutmaslik kerakki, jinoyat protsessi shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos sohasidir. Bu munosabatlarning o'ziga xosligi, avvalo, fuqaro va murakkab davlat mexanizmi o'rtasidagi ma'lum darajadagi tengsizlikda namoyon bo'ladi. Bu holat ayblanuvchi (sudlanuvchi)ga ham, jabrlanuvchiga ham taalluqlidir. Aynan shu sababli jinoyat-protsessual normalarning ahamiyati juda katta. Hatto davlat amaldori nazarida juda kichik ko'ringan chetga chiqish yoki ushbu normalarga rioya qilmaslik shaxs huquqlarining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida milliy jinoyat sudlarining asosiy vazifasi sifatida inson huquqlarini himoya qilish belgilangan va odil sudlovning muhim xalqaro prinsipi – fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipi mustahkamlangan (JPK 18-moddasi). I. Mixaylovskaya ta'kidlaganidek, adliya tizimida "jazolovchi" funksiyadan ko'ra "himoya qiluvchi" funktsiya ustuvor ahamiyat kasb etmoqda, ya'ni zamonaviy sud-huquq tizimining asosiy vazifasi faqatgina jinoyat sodir etgan shaxsni jazolash emas, balki inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shaxsning

qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda adolat tamoyillariga asoslangan sudlovni amalga oshirishdan iboratdir [3].

Bir nechta xalqaro standartlarda ham sudlanuvchining huquqlari himoya qilish masalasi alohida e'tirof etilgan. Bunda xalqaro standartlar deganda davlatlar tomonidan keng e'tirof etilgan, fuqarolarni jinoyatlardan hamda ularni jinoiy javobgarlikka tortish jarayonida huquqlari buzilishidan maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan qoidalar tushuniladi [4].

Universal xalqaro-huquqiy hujjat hisoblangan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasiga ko'ra, har bir inson o'z huquq va burchlarini belgilash hamda unga qo'yilgan jinoiy aybning asosli ekanini aniqlash uchun uning ishi to'liq tenglik asosida oshkora va adolatning barcha talabiga rioya qilgan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Mazkur qoida xalqaro huquqda "right to a fair trial", ya'ni adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi sifatida e'tirof etilib, sudlov jarayonida shaxsning asosiy protsessual kafolatlarini ta'minlashga xizmat qiladi [5].

Shuningdek, Deklaratsiyaning 11-moddasida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi ham mustahkamlab qo'yilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aybsizlik prezumpsiyasi faqat jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs qonuniy tartibda aybi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishini belgilash bilan cheklanmaydi. U shuningdek ayblanuvchiga o'zini himoya qilish imkonini beruvchi huquqlar majmuasini



ham o'z ichiga oladi. Ushbu huquqlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- sud muhokamasining oshkoraligi;
- himoya qilish uchun barcha imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- sodir etilgan paytda jinoyat hisoblanmagan harakat uchun jazolashga yo'l qo'yilmasligi;
- jinoyat sodir etilgan vaqtda belgilangan jazodan og'irroq jazo qo'llanilmasligi.

Deklaratsiyadan keyin qabul qilingan xalqaro hujjatlar aybsizlik prezumpsiyasi mazmunini yanada kengaytirdi. Xususan, quyidagi qo'shimcha huquqlar belgilandi:

- yuqori instansiya sudi tomonidan hukmni qayta ko'rib chiqish huquqi;
- noqonuniy sudlanganlik uchun reabilitatsiya huquqi;
- bir xil jinoyat uchun qayta sud qilinmaslik prinsipi.

Shuningdek, aybsizlik prezumpsiyasi mintaqaviy xalqaro hujjatlarda ham belgilab qo'yilgan. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan. Unga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs uning aybi qonuniy tartibda isbotlanmagunicha aybsiz deb hisoblanadi. Ushbu norma nafaqat protsessual qoida, balki davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun muayyan xulq-atvor standartini belgilovchi demokratik tamoyildir. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (IHYeS) mazkur moddaning amaliyotda qo'llanilishini talqin qilar ekan, aybsizlik prezumpsiyasining buzilishi nafaqat sudya tomonidan, balki boshqa davlat mulozimlari tomonidan ham sodir

etilishi mumkinligini qat'iy belgilab qo'ygan [6].

Bunga misol tariqasida, IHYeS pretsedent huquqida "poydevor" hisoblangan "Allenet de Ribemont Fransiyaga qarshi" (1995) ishi alohida ahamiyatga ega. 1976-yil 24-dekabrda Fransiyaning sobiq vaziri Jan de Brogli o'ldiriladi. Oradan besh kun o'tgach, 29-dekabr kuni Fransiya Ichki ishlar vaziri Mishel Ponyatovski, Politsiya komissari va prokuror ishtirokida katta matbuot anjumani o'tkaziladi. Mazkur anjumanda Fransiya Ichki ishlar vaziri ochiqchasiga: "Politsiyada barcha isbotlar bor, qotillikning tashkilotchisi — Allenet de Ribemont", deb bayonot beradi. Vaholanki, o'sha paytda Ribemontga nisbatan hali rasmiy ayblov ham e'lon qilinmagan, u shunchaki gumon ostida politsiya nazoratida edi. Keyinchalik, dalillar yetarli bo'lmagani sababli u aybsiz deb topiladi va ozod qilinadi. Ushbu keysda sud shunday xulosaga keldiki, aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat sud majlisi davomida, balki tergovning dastlabki bosqichlarida ham daxlsizdir. Yakunda sud Konvensiyaning 6-moddasi 2-bandi buzilgan deb topdi. Sud vazirning bayonotini "shaxsni aybdor deb hisoblashga undovchi" deb baholadi. Allenet de Ribemont ishi aybsizlik prezumpsiyasining nafaqat sud zalida, balki butun davlat apparati va ommaviy axborot makonida amal qiluvchi daxlsiz tamoyil ekanligini isbotladi. Mazkur pretsedent davlatning jinoiy ta'qib qilish vakolati va shaxsning sha'ni hamda qadr-qimmatini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda asosiy huquqiy mezonga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, tergov organlari va ijro hokimiyati vakillarining ommaviy chiqishlarida huquqiy



madaniyat hamda protsessual etika normalariga rioya qilishlarini majburiy qilib qo'ydi [7].

Aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat mintaqaviy, balki universal xalqaro shartnomalar tizimida ham fundamental huquq sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi 2-bandida har bir ayblanuvchining aybi qonunga muvofiq isbotlanmaguniga qadar aybsiz deb hisoblanish huquqi e'tirof etilgan. Mazkur norma nafaqat sud organlari, balki barcha davlat hokimiyati bo'g'inlari uchun majburiy xarakterga ega ekanligi BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan berilgan sharhlarda o'z aksini topgan.

Xususan, BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining 32-sonli Umumiy tartibdagi mulohazalarida (General Comment No. 32) ta'kidlanishicha, aybsizlik prezumpsiyasi barcha davlat organlaridan shaxsning aybdorligi to'g'risida sud qarori chiqqunga qadar ommaviy bayonotlar berishdan tiyilishni talab qiladi. Qo'mitaning fikriga ko'ra, ushbu tamoyil nafaqat sud jarayonini, balki tergov va prokuratura organlarining faoliyatini ham qamrab oladi [8].

Pakt doirasida aybsizlik prezumpsiyasining buzilishi bilan bog'liq muhim keyslardan biri sifatida "Gridin Rossiyaga qarshi" (Gridin v. Russian Federation, 2000) ishini keltirish mumkin. Mazkur ishda jinoiy ish qo'zg'atilgandan so'ng, sud hukmi chiqishidan avval yuqori lavozimli huquq-tartibot organlari xodimlari televideniye orqali shaxsni aybdor

sifatida ko'rsatib, unga nisbatan qat'iy ayblov xulosalarini bayon etganlar. BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi ushbu holatni o'rganib chiqib, davlat organlarining bunday harakatlari Paktning 14-moddasi 2-bandiga zid ekanligini aniqladi. Qo'mita o'z qarorida ta'kidlaganidek, aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat sud majlisi davomida isbotlash yukini ayblovchi tarafga yuklaydi, balki davlat vakillaridan shaxsning aybi to'g'risida jamoatchilikda oldindan yanglish fikr shakllantirmaslikni ham talab qiladi [9].

Aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat sudya uchun protsessual majburiyat, balki butun davlat apparati uchun axloqiy va huquqiy cheklovdir. Agar davlat shaxsni televideniye orqali "aybdor" deb tamg'alasa, sud binosidagi hech qanday protsedura bu zararni qoplay olmaydi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktida aybsizlik prezumpsiyasi bilan bir qatorda har bir kishi o'ziga qo'yilgan har qanday ayblov ko'rib chiqilayotganda to'liq tenglik asosida kamida quyidagi kafolatlar ta'minlanishi huquqiga ega:

a) o'ziga qo'yilgan ayblov xususiyati va asoslari haqida o'zi tushunadigan tilda darhol va batafsil xabardor etilish;

b) o'z himoyasini tayyorlash va o'zi tanlagan himoyachi bilan muloqotda bo'lish uchun yetarlicha vaqt va imkoniyatga ega bo'lish;

c) asossiz holda to'xtatib turilmasdan o'z ishining sudda ko'rib chiqilishi;

d) o'zi qatnashib sud qilinishi va o'zining o'zi yoki tanlab olingan himoyachi vositasida himoya qilinishi;



agar himoyachisi bo'lmasa, unga ega bo'lish huquqi borligi haqida xabardor qilinishi; odil sud manfaatlarini talab etgan har qanday holda o'ziga tayinlangan himoyachiga ega bo'lish, unga to'lash uchun yetarli mablag'i bo'lmagan barcha hollarda o'ziga himoyachining tekinga berilishi;

e) o'ziga qarshi ko'rsatuv berayotgan guvohlarni so'roq qilish yoki ana shu guvohlar so'roq qilinishi huquqiga ega bo'lish va unga qarshi ko'rsatuv berayotgan guvohlar uchun bo'lgan shartlarda uning o'zi tanlagan guvohlarning tergovga chaqirilishi va so'roq qilinishi huquqiga ega bo'lish;

f) agar sudda qo'llanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda so'zlay olmasa bepul tarzda tarjimon ko'magidan foydalanish;

g) o'ziga o'zi qarshi ko'rsatuv berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik [10].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Jinoiy odil sudlov tizimlarida yuridik yordamdan foydalanish bo'yicha tamoyillari va yo'riqnomalari" da ta'kidlanishicha, davlatlar yuridik yordam ko'rsatishda turli modellardan foydalanishlari mumkin. Jumladan, davlat himoyachilari, xususiy advokatlar, shartnoma asosida ishlovchi advokatlar, pro bono dasturlari, advokatlar uyushmalari hamda paralegallar faoliyati orqali yuridik yordam ko'rsatilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur tamoyillar muayyan bir modelni ustun deb belgilamaydi. Asosiy maqsad – qo'lga olingan, hibsga olingan yoki ozodlikdan mahrum etilgan, shuningdek jinoyat sodir etishda gumon qilingan yoki ayblangan shaxslarning yuridik yordam

olish huquqini ishonchli ta'minlashdan iboratdir [11].

Shuningdek, ushbu tamoyillarda qayd etilishicha, samarali yuridik yordam tizimini yaratish yoki uni yanada mustahkamlash jinoiy odil sudlov tizimining samarali ishlashiga xizmat qiladi. Shu sababli davlatlar zarur hollarda yuridik yordam tizimini rivojlantirishga qaratilgan turli choratadbirlarni amalga oshirishlari lozim. Bu esa o'z navbatida shaxslarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning huquq hamda erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilishga yordam beradi.

Zamonaviy huquq tizimida insonning shaxsiy erkinligi va daxlsizligini ta'minlash eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Ulardan eng muhimlaridan biri habeas corpus prinsipidir. "Xabeas korpus" (lot. habeas corpus) – "tanani sudga keltirish", ya'ni jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqining tarixan eng qadimiy e'tiroflaridan biri hisoblanadi. "Xabeas korpus" (lot. habeas corpus) – "tanani sudga keltirish", ya'ni jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqining tarixan eng qadimiy e'tiroflaridan biri hisoblanadi. Bu akt 1679-yil 26-mayda Angliya parlamenti tomonidan qabul qilingan bo'lib, qadimdan mavjud bo'lgan shaxsiy erkinlik huquqini yozma shaklda mustahkamladi. Ayrim tadqiqotchilar habeas corpus hatto Buyuk erkinlik xartiyasi (Magna Carta) dan oldin ham mavjud bo'lganini va XIV asr oxiridan qo'llanilganini ta'kidlaydilar [12] [13].

Xalqaro huquqda habeas corpus — bu shaxs erkinligini himoya qiluvchi



huquqiy prinsip bo'lib, noqonuniy ushlab turish yoki qamoqqa olishning oldini olishga qaratilgan. U dastlab milliy huquq tizimlarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning asosiy mazmuni xalqaro huquqiy tizimlarda ham tan olingan va moslashtirilgan.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan habeas corpus inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi. U shaxsning qamoqqa olinishi ustidan mustaqil sud tomonidan tekshiruv o'tkazish orqali uni shubha ostiga qo'yish huquqini ta'kidlaydi. Bu prinsip qamoqqa olish qonuniy bo'lishi kerakligini ta'minlaydi hamda shaxsga, qaysi yurisdiksiyada bo'lishidan qat'i nazar, huquqiy himoya vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

Habeas corpus ko'proq milliy huquqiy an'analar bilan bog'liq bo'lsa-da, uning xalqaro shartnomalar va inson huquqlari to'g'risidagi hujjatlarda tan olinishi uning global ahamiyatini ko'rsatadi. Turli huquqiy tizimlar va xalqaro tashkilotlar ushbu prinsipni qo'llab-quvvatlashga intiladi, bu esa milliy chegaralardan tashqarida ham shaxs huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Biroq xalqaro huquq tizimlarida habeas corpus qo'llanishi sezilarli darajada farq qiladi. Bu farqlar yurisdiksiya, huquqiy an'ana va davlatlarning xalqaro majburiyatlari bilan bog'liq. Ko'plab davlatlar habeas corpus prinsipini o'z milliy qonunchiligiga kiritgan bo'lsa-da, xalqaro darajada u ko'pincha shartnomalar va inson huquqlari konvensiyalari orqali tan olinadi. Xalqaro huquq doirasida bir qator shartnomalar va konvensiyalar habeas corpus

prinsipini bevosita yoki bilvosita tan oladi va qo'llab-quvvatlaydi. Bu huquqiy hujjatlar butun dunyoda noqonuniy qamoqqa olishga qarshi himoyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ularning eng muhimlari qatoriga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (UDHR) va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR) kiradi. Ayniqsa ICCPRning 9-moddasi shaxs erkinligi va xavfsizligi huquqini tasdiqlab, qamoqqa olish ustidan tezkor sud nazoratini amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro jinoiy sud faoliyatining asosiy huquqiy manbasi hisoblangan 1998-yilgi Rim Statuti sud jarayonida shaxsning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratadi. Statutda sudlanuvchining huquqlari jinoyat protsessining barcha bosqichlarida — tergovdan tortib sud muhokamasigacha — kafolatlanadi. Xususan, Rim Statutining 67-moddasi sudlanuvchining sud muhokamasi jarayonidagi asosiy huquqlarini belgilaydi. Ushbu norma sud jarayonining adolatli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan minimal kafolatlarni o'z ichiga oladi.

Sudlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- ayblovning mazmuni, sabablari va mohiyati haqida tezkor va batafsil ma'lumot olish huquqi;
- o'z himoyasini tayyorlash uchun yetarli vaqt va imkoniyatlarga ega bo'lish;
- o'z advokati bilan erkin va maxfiy aloqa qilish;
- ishni asossiz kechiktirishsiz ko'rib chiqish huquqi;
- sud majlisida shaxsan ishtirok etish yoki advokat orqali himoyalani;



- advokat xizmatlari uchun mablag'i bo'lsa, sud tomonidan bepul yuridik yordam bilan ta'minlanish;
- ayblov guvohlarini so'roq qilish va o'z guvohlarini chaqirish huquqi;
- agar sud jarayoni tili tushunarsiz bo'lsa, bepul tarjimon xizmatidan foydalanish;
- o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinmaslik;
- sukut saqlash huquqi;
- o'z himoyasi uchun og'zaki yoki yozma bayonot berish huquqi;
- aybni isbotlash majburiyati ayblov tomoni zimmasida bo'lishi [14].

Shuningdek, mazkur statutda

Rim Statutida sudlanuvchining huquqlarini himoya qilish xalqaro jinoiy adliyaning muhim tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlangan. Statutda tergov bosqichidan boshlab sud jarayoni yakunigacha shaxsning asosiy protsessual huquqlari aniq belgilangan. Ushbu huquqlar aybsizlik prezumpsiyasi (66-modda), himoya huquqi, adolatli sudlov, sud jarayonining oshkoraligi va inson qadr-qimmatini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi. Shu sababli Rim Statuti xalqaro jinoiy sud tizimida sudlanuvchining huquqlarini kafolatlovchi eng muhim xalqaro huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, sudlanuvchining odil sudlovga bo'lgan huquqini ta'minlash zamonaviy xalqaro huquq tizimining eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlarini himoya qilish demokratik huquqiy davlatning asosiy mezoni bo'lib, bu tamoyil milliy va xalqaro huquq tizimlarida keng e'tirof etilgan. Xalqaro huquqiy hujjatlar —

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi hamda boshqa ko'plab universal va mintaqaviy hujjatlar — sudlanuvchining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim standartlarni belgilab beradi.

Mazkur xalqaro standartlar doirasida aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, sud muhokamasining oshkoraligi, mustaqil va xolis sud tomonidan ishni ko'rib chiqish, o'zini himoya qilish uchun yetarli vaqt va imkoniyatlarga ega bo'lish, advokat yordamidan foydalanish, guvohlarni so'roq qilish hamda bepul tarjimon xizmatidan foydalanish kabi protsessual kafolatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kafolatlar shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilish jarayonida davlat hokimiyati organlari bilan teng huquqli munosabatda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro sud organlari va inson huquqlari bo'yicha nazorat institutlari amaliyoti ham sudlanuvchining huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi va BMT Inson huquqlari qo'mitasi qarorlari orqali aybsizlik prezumpsiyasi, adolatli sud muhokamasi hamda davlat organlarining xulq-atvori bilan bog'liq huquqiy standartlar yanada rivojlantirilgan. Bu esa sudlov jarayonida shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiluvchi xalqaro huquqiy mexanizmlarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, habeas corpus prinsipi ham shaxs erkinligi va daxlsizligini himoya qiluvchi muhim



huquqiy kafolatlardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, noqonuniy hibsga olish va ozodlikdan mahrum qilishning oldini olishga qaratilgan. Mazkur prinsip xalqaro huquqiy hujjatlarda tan olinishi orqali shaxsning sud orqali himoya qilinish huquqini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro jinoiy adliya tizimining muhim huquqiy manbalaridan biri bo'lgan Rim Statuti ham sudlanuvchining huquqlarini keng qamrovli tarzda kafolatlaydi. Statutda sudlanuvchining protsessual huquqlari tergov bosqichidan boshlab sud muhokamasi yakunigacha aniq belgilangan bo'lib, u aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, adolatli sudlov, sud jarayonining oshkoraligi hamda inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

Shu jihatdan Rim Statuti xalqaro jinoiy sud tizimida shaxs huquqlarini himoya qiluvchi eng muhim xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sudlanuvchining odil sudlovga bo'lgan huquqini ta'minlash bo'yicha xalqaro-huquqiy standartlar shaxs erkinligi, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu standartlar davlatlardan nafaqat ularni normativ darajada tan olishni, balki amalda samarali qo'llashni ham talab etadi. Natijada, sudlanuvchining huquqlarini himoya qilish tizimi inson huquqlarini ta'minlashning ajralmas qismi sifatida zamonaviy huquq tizimining muhim kafolatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

References:

1. Usmonov M.B., Qo'shayev N.M. Insonning umumiy konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari. Risola. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023.
2. <https://isrs.uz/oz/content/undefined/post/947>
3. Михайловская И. Права личности — новый приоритет Уголовно-процессуального кодекса Российской Федерации // Российская юстиция. 2002. № 7. С. 2. <https://base.garant.ru/5112926/>
4. Ибрагимова С.Э. Международные принципы защиты прав человека и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан // Вестник Юридического факультета Южного федерального университета. 2019. Т. 6. № 4. С. 58–63. DOI: 10.23683/2313-6138-2019-6-4-10.
5. Universal Declaration of Human Rights <https://lex.uz/uz/docs/-7338189>
6. European Convention of Human Rights <https://wetten.overheid.nl/BWBV0001000/2021-08-01>
7. CASE OF ALLENET DE RIBEMONT v. FRANCE (*Application no. 15175/89*) STRASBOURG 10 February 1995 <https://hudoc.echr.coe.int/?i=001-57914>
8. UN Human Rights Committee (HRC), General comment no. 32, Article 14, Right to equality before courts and tribunals and to a fair trial, 23 August 2007, CCPR/C/GC/32, para. 30. URL: <https://undocs.org/CCPR/C/GC/32>
9. UN Human Rights Committee (HRC), *Gridin v. Russian Federation*, Communication No. 770/1997, UN Doc. CCPR/C/69/D/770/1997 (2000), para.



8.2.https://tbinternet.ohchr.org/_layouts/15/treatybodyexternal/Download.aspx?symbolno=CCPR/C/69/D/770/1997

10. UN Human Rights Committee (HRC), *Gridin v. Russian Federation*, Communication No. 770/1997, UN Doc. CCPR/C/69/D/770/1997 (2000), para.

8.2.https://tbinternet.ohchr.org/_layouts/15/treatybodyexternal/Download.aspx?symbolno=CCPR/C/69/D/770/1997

11. International Covenant on Civil and Political Rights
<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

12. United Nations. *Principles and Guidelines on Access to Legal Aid in Criminal Justice Systems*. UN General Assembly Resolution 67/187, 20 December 2012.
https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/UN_principles_and_guidelines_on_access_to_legal_aid.pdf

13. “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” – inson huquqi ta’minlanishining Konstitutsiyadagi yaqqol aksi “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” haqida nimalar bilamiz? https://uza.uz/uz/posts/habeas-korpus-va-miranda-qoidasi-inson-huquqi-taminlanishining-konstituciyadagi-yaqqol-aksi-habeas-korpus-va-miranda-qoidasi-haqida-nimalar-bilamiz_469447

14. Sharpe R.J. *The law of Habeas Corpus*. Oxford, 1976.

15. Rome Statute of the International Criminal Court <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/2024-05/Rome-Statute-eng.pdf>